



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 586 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari.....	27
Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
Alinazarova Mahfuza	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
Ergasheva S. T.	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
Jo'rayeva Matluba	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
Komilova Z. X.	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
M. Yu. Mahkamova	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes.....	90
Madina Tilavova	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar.....	94
N. O. Saidova	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli.....	99
Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
Ochilova Dilbar Isroilovna	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi.....	108
Oripova Zilola	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
Qurbanova Ilmira Alisher qizi	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munojatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafuz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda morfologik kompetentlikni shakllantirish	308
Ganiyeva Shodiya Azizovna	
Модель "4+1+1" как ключевой механизм в системе практической подготовки учителей музыки.....	313
Мухитдинова Малохатхон Саиджабборовна	
Tarbiya fanini o'qish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	317
Nazarova Nasiba Abdullayevna	
Tarbiyachining kasbiy psixologik xususiyatlari.....	320
Shamshetova Anjim Karamaddinovna	
Boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi va metodologiyasi	323
Bo'ronova Iroda Bo'ronovna	
Yosh dzyudochi qizlarning mashg'ulotlar jarayonida jismoniy tayyorgarligini oshirish texnologiyalari	327
Matmurotova Iroda Baxtiyor qizi	
"Odob us-solihin" asarida yoritilgan axloqiy-didaktik g'oyalar va uning pedagogik mazmuni.....	332
A. N. Nusratov	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik asoslari	336
Xolmatov Pardaboy Qoraboevich, Abdurasulova Dilnoza	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida loyihalashtirishning o'rni	342
<i>Abdusattorova Go'zalxon Abdulxabib qizi</i>	
Tibbiyot va frazeologiya inson omilida	346
<i>Achilov Muzaffar Norquliyevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda matematikaning ahamiyati	349
<i>Mamasaidova Muhabbat Abdulalom qizi, Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi</i>	
Ekoestetik kompetensiyani shakllantirishning xorijiy va milliy tajribalar tahlili	354
<i>Alijonova Maftuna Maxamadjon qizi</i>	
Pedagogik jarayonda talabalarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish mexanizmlari	359
<i>Alikulova Muxayyo Sherovna</i>	
Ingliz ritsarlik romanlarining lingvopoetik tahlili	362
<i>Durdona Boychayeva, Aliyeva Elmira</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning pedagogik asoslari	365
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni mohiyati va tarkibiy tuzilmasi	369
<i>Axmadjonova Jasmina Jamshid qizi</i>	
Developing Writing Competence Among CEFR B1 and Ielts Learners Experiencing Difficulties in English Language Acquisition	374
<i>Ayturayev Majid Mavlankhanovich</i>	
Ta'lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning milliy qadriyatlarga asoslangan modeli	378
<i>Azamov Umarxon Yaxyoxonovich</i>	
Complications in Teaching Argumentative Speech to Students in Grades 8–9	383
<i>Buribayeva Aziza Ismatillaevna</i>	
Interfaol o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari	386
<i>Buriyeva Aziza Nematovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish	390
<i>Davronova Sevinch</i>	
O'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishda maqollardan foydalanish bo'yicha manbaalar tahlili	394
<i>Boltayeva Barno, Eliboyeva Surayyo Abdulkarim qizi</i>	
Social Roots and Psychological Consequences of Domestic Violence	399
<i>Dumarova Gulmira Kozimbekovna, Mamadaliyeva Gulmira, Sultonova Zulhayo</i>	
The Transversal-Methodical Competence of a Preschool Educator is the Foundation of Effective And Quality Education	402
<i>Ergasheva Barno Ziyavitdin kizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning innovatsion yo'llari	406
<i>Erkinova Mehriniso Ro'ziboyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish strategiyalari	411
<i>Eshonkulova Hilola Rajab qizi</i>	
Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning bilish faoliyatiga ta'siri	415
<i>Habibova Shyira Baxtiyorovna</i>	
Ruhiy rivojlanishi sustlashgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish	419
<i>Ikromova Sarvinoz Siroj qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda riskologik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	424
<i>Jabborova Dilafuz Furqatovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tili o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning psixologik asoslari	428
<i>Jurayeva Sug'diyona Shamsiddin qizi</i>	
Transforming Education: The Impact of Emerging Technologies on Modern Pedagogical Practices	431
<i>Kadirova Ferangiz Himmatillo qizi</i>	
Salomatlik etikasi konsepsiyasi va pedagogik madaniyat – talabalar ma'naviyati va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli	435
<i>Kamalova Yoqutxon Bahodirovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Tarbiyachilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish omillari 439 Kenjayeva Dildora Terkashevna Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati 443 Kistabayeva Gulchexra Djurakulovna Kichik maktab yoshi davrida o'quv faoliyati va o'quv motivlarining shakllanishi 448 Latifa Zarifovna Korayeva Maktabgacha ta'lim tizimining raqamlashtirilishi: xalqaro tajriba va istiqbollar 451 Mahmudova Zulfiya Homidovna, Hoshimova Dilnoza Boymirzoevna Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini dizayn tafakkurga o'rgatishda STEAM yondashuvining didaktik imkoniyatlari 454 Mamadaminova Munisa Maxmudjon qizi, Boboxonova Shodiyona Rustam qizi Tabiatni asrash – kelajakni asrash: Buxoro misolida 459 Mardonova Saodat Muzaffarovna Bo'lajak pedagoglarda o'z-o'zini baholash kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish 463 Meyliyeva Nafosat Gulomovna Sun'iy intellektning ta'limda kognitiv va metakognitiv jarayonlarga ta'siri 466 Murodov Ulug'bek O'tkir o'g'li Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning tashkil etilishi 470 Mustofoyeva Muhabbat Husniddin qizi The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress 473 Nargiza Khayrullayevna Ortikova, Laziz Azizovich Normuratov Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari 477 Ortiqov Akmaljon Abdusalom o'g'li CLIL metodining O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilishi 481 Qarshiyeva Sarvinoz Ural qizi The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency 486 Kosimov Sunnat Ravshan ugli Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirishda tasviriy san'atning o'rni 490 Quvonchbek Abduxamidov Axborot texnologiyalari ta'sirida san'at tushunchasining o'zgarishi 494 Rajabova Laylo O'tkir qizi Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari 498 Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning pedagogik asoslari 501 Yusufzoda Shabnami Yunus, Rashidova Saida Ravshonbek qizi Axborot texnologiyalarini fizika darslarida qo'llash 506 Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li Axborot xavfsizligini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish afzalliklari 510 Raxmetova Lazzat Eshitishda nuqsonli bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarining o'ziga xosligi 513 S. A. Mamatisayeva Androgogik yondashuvning integrativ metodikasi 517 Sattorova Shaxlo Axadovna Gendered Language in Uzbek and English Media Discourse 520 Sultonova Charos Iskandar kizi Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarda ijtimoiy ekologik dunyoqarashni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar 527 Suyunova Matluba Abdusaidovna Empatiya shifokor–pasiyent munosabatida: tibbiyot talabalarining psixologik tayyorgarligi 531 Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi, Qurbonova Fotima Farhodjon qizi Modern Approaches to Teaching Grammar 534 Tuychiyev Azamat Farkhod ugli The Importance of Psychological Preparation of Preschool Children for School Education 538 Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li
-------------------------------------	---



Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	541
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
Imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar faoliyatida universal ta'limning imkoniyati	544
<i>Xolmatova Sarvinoz Raxmatilla qizi</i>	
Kurashchilarning umumiy va maxsus sport tayyorgarliklari.....	548
<i>Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li</i>	
Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida ekologik kompetentlik tushunchalarini rivojlantirish bosqichlari.....	551
<i>Yarova Gulhayo Fazliddin qizi</i>	
Arxitektura va dizayn yo'nalishi bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish vositasida axborot almashish jarayonlarini optimallashtirish metodikasini takomillashtirish.....	555
<i>Kuchimov M. K.</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	559
<i>Quldashv Murodjon G'aniyevich</i>	
Лингвистическое исследование влияния социальных сетей на синтаксические изменения в языке современного поколения.....	562
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining nutq madaniyati.....	566
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Gulimbayeva Barno</i>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа-маҳалля" в Узбекистане ...	570
<i>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</i>	
Mantiqiy masalalarni bajarishning metodik usullari	575
<i>Tosheva Yulduz</i>	
Bo'lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik-psixologik omillar (jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari misolida)	579
<i>Yarmatov Akbar Normurotovich</i>	
Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini samarali shakllantirish muammosining xorijiy tadqiqotlardagi talqini	582
<i>Matyakubov Elyor Rajapovich</i>	



KASBIY KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING MAZMUNI MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILMASI

Axmadjonova Jasmina Jamshid qizi
Nizomiy nomidagi O'zMPU
"Tasviriy san'at" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, uning mazmuni, mohiyati hamda tarkibiy tuzilmasi tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning o'rni, mutaxassis tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari, ularning tarkibiy qismlari hamda pedagogik va psixologik omillar yoritilgan. Maqolada kasbiy kompetensiya shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi va uni samarali amalga oshirish qobiliyatining ifodasi sifatida keng tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kasbiy kompetensiya, malaka, ko'nikma, bilim, faoliyat, motivatsiya, kasbiy rivojlanish, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the concept of professional competence, its essence, content, and structural components. It also examines the role of the competency-based approach in the modern education system, the mechanisms for developing professional competence in the process of training specialists, as well as pedagogical and psychological factors. Professional competence is presented as an expression of an individual's readiness for professional activity and the ability to perform it effectively.

Key words: competence, professional competence, qualification, skill, knowledge, activity, motivation, professional development, competency-based approach.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-теоретические основы понятия профессиональной компетенции, её сущность, содержание и структурные компоненты. Кроме того, рассматривается роль компетентностного подхода в современной системе образования, механизмы формирования профессиональной компетенции в процессе подготовки специалистов, а также педагогические и психологические факторы. Профессиональная компетенция представлена как выражение готовности личности к профессиональной деятельности и способности эффективно её осуществлять.

Ключевые слова: компетенция, профессиональная компетенция, квалификация, навык, знание, деятельность, мотивация, профессиональное развитие, компетентностный подход.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talablariga mos malakali kadrlar tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri raqobatbardosh, kasbiy jihatdan yetuk, ijodkor mutaxassislarni tayyorlashdir. Shu maqsadda, so'nggi yillarda ta'limda kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyasi faol joriy etilib, "bilim, ko'nikma, malaka" uchligi endi "kompetensiya" tushunchasi bilan uyg'un holda talqin etilmoqda.

Kompetensiya – bu nafaqat o'zlashtirilgan bilimlar majmui, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidir. Hozirda barcha ta'lim va fan sohalariga yuksak e'tibor qaratilishi barobarida tasviriy san'at fanining ta'lim muassasalarida o'qitilishi va o'rganilishi yo'nalishida ham ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Kasbiy kompetensiya – bu shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini ifodalovchi integral sifatdir. U bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy fazilatlarining uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'ladi. Mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi qanchalik yuksak bo'lsa, uning amaliy faoliyati shunchalik samarali bo'ladi.

Tasviriy san'at sohasida kasbiy kompetensiya tushunchasi nafaqat texnik mahorat va badiiy bilimlar yig'indisini, balki san'atkor shaxsining estetik didi, ijodiy tafakkuri hamda badiiy madaniyatini o'zida mujas-

samlashtirgan murakkab kasbiy sifatni anglatadi. Badiiy faoliyat tabiatiga ko'ra insonning ruhiy dunyosi, hissiy tajribasi va aqliy qobiliyatlari uyg'unligiga tayanadi. Shu sababli, tasviriy san'at yo'nalishida kasbiy kompetensiya deganda shaxsning nafaqat rasm, haykal yoki kompozitsiya ishlash mahorati, balki san'at orqali g'oya, hissiyot va estetik qadriyatni ifoda eta olish darajasi tushuniladi.

Badiiy ijod jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra inson tafakkurining eng murakkab shakli bo'lib, unda idrok, tahlil, sintez va obrazli fikrlash bir butun tizimni tashkil etadi. Shuning uchun tasviriy san'at o'qituvchisining yoki rassom-pedagogning kasbiy kompetensiyasi – bu bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarining o'zaro uyg'unlashgan majmui sifatida qaraladi. Rassom o'z asarida texnik mukammallikdan tashqari badiiy mazmunni, ruhiy holatni va falsafiy g'oyani ochib bera olsa, u haqiqiy kasbiy kompetent mutaxassis hisoblanadi.

Bunday kompetensiya esa faqat texnik mashg'ulotlar bilan emas, balki estetik tafakkurni rivojlantirish, san'at tarixini chuqur o'rganish, milliy va jahon badiiy tajribasini tahlil qilish orqali shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayoni tizimli va uzluksiz xarakterga ega. Bu jarayon oliy ta'limdagi nazariy tayyorgarlik, amaliy tajriba, mustaqil o'qish, o'zini rivojlantirish, shuningdek, kommunikativ va refleksiv ko'nikmalarni takomillashtirish orqali amalga oshadi. Zamonaviy sharoitda kompetensiya shakllanishida "bilim olish"dan ko'ra "bilimni qo'llash" tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa mutaxassisni yangilikka ochiq, ijodkor, analitik fikrlaydigan va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi.

Kasbiy kompetensiya – bu mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, o'zini kasbiy jihatdan rivojlantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olish qobiliyatini ifodalovchi murakkab integrativ tushunchadir. Ushbu kategoriya faqat nazariy bilim yoki amaliy malaka bilan chegaralanmay, balki ularni ijodiy qo'llay olish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, muloqot madaniyatiga ega bo'lish kabi omillarni ham o'z ichiga oladi.

Tasviriy san'at yo'nalishida kasbiy kompetensiyaning shakllanishi ayniqsa murakkab psixologik va ijodiy jarayon hisoblanadi. Chunki bu sohada insonning nafaqat bilim darajasi, balki estetik didi, badiiy tafakkuri, idrokning nozikligi va hissiy sezgirligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. San'at sohasidagi kompetent mutaxassis o'z asarlarida hayotiy voqelikni estetik anglash, uni badiiy obrazlar orqali ifoda etish, shuningdek, tomoshabinda hissiy rezonans uyg'otish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Tasviriy san'at sohasidagi kasbiy kompetensiya ayni paytda milliy badiiy meros va zamonaviy san'at o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Bugungi globallashuv sharoitida har bir san'atkor va pedagogdan milliy identifikatsiyani saqlagan holda zamonaviy san'at yo'nalishlarini o'zlashtirish, yangilik yaratish va innovatsion texnologiyalarni badiiy jarayonga kiritish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, kompetensiya shaxsning kasbiy yetukligi bilan bir qatorda uning madaniy moslashuvchanligini ham aks ettiradi.

Bundan tashqari, tasviriy san'atda kasbiy kompetensiya o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiv tahlil jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. San'atkor o'z asarini yaratish davomida o'z ichki kechinmalarini, estetik qarashlarini va hayotiy tajribasini qayta tahlil qiladi. Shu jarayonda u o'z kasbiy tajribasini boyitadi, yangi g'oyalar yaratadi va ijodiy kompetensiyasini yanada chuqurlashtiradi.

Kasbiy kompetensiyaning mohiyatini yanada chuqurroq tahlil etgan olimlar A.V. Xutorskiy, E.F. Zeer, L.M. Mitina, shuningdek, o'zbek olimlaridan O. Hasanboeva va N. Azizxo'jayevalar kompetensiyani shaxsning faoliyat jarayonida o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish vositasi sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, haqiqiy kompetensiya bilim, ko'nikma va qadriyatlarning birikmasidan ko'ra ko'proq – shaxsning o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan refleksiv yondashuvi, o'zini baholay olish va o'z ustida ishlash qobiliyatidir. Demak, kompetensiya faqat o'rganilgan bilimlar yig'indisi emas, balki insonning kasbiy madaniyati va axloqiy yetukligi bilan ham belgilanadi.

Bugungi kunda raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashda kasbiy kompetensiyani shakllantirish eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Chunki jamiyat tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan sharoitda yangi texnologiyalar, innovatsiyalar va mehnat bozorining talablariga moslasha oladigan kadrlarni talab qilmoqda. Bunday shaxsni tayyorlash uchun esa nafaqat o'quv dasturlari, balki o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot, refleksiya va hamkorlik muhitining sifat darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik faoliyatning interaktiv, innovatsion, muammoli va ijodiy metodlariga tayanish zarur.

Kasbiy kompetensiya quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat kompleks tushunchadir:

1. Kasbiy bilimlar (nazariy tayyorgarlik);
2. Kasbiy ko'nikma va malakalar (amaliy faoliyat tajribasi);
3. Shaxsiy-psixologik sifatlar (mas'uliyat, tashabbus, kommunikativlik, o'zini boshqarish);
4. Kasbiy motivatsiya va qadriyat yo'nalishlari (kasbga sadoqat, o'z ustida ishlash istagi).



Tasviriy san'at sohasidagi kasbiy kompetensiyaning mohiyati rassomning o'z ijodiy individualligini jamiyat ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. San'atkor o'z asarlari orqali nafaqat estetik zavq uyg'otadi, balki inson tafakkuriga, axloqiy qadriyatlariga va milliy o'zlikni anglash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, tasviriy san'atdagi kompetensiya – bu shaxsning badiiy-estetik dunyoqarashi, ijtimoiy mas'uliyati va ijodiy mustaqilligini birlashtirgan integral sifatdir.

Tasviriy san'at yo'nalishidagi pedagog uchun kasbiy kompetensiya yanada keng ma'noga ega. Chunki u o'quvchiga faqat rasm chizish yoki badiiy texnikalarni o'rgatmaydi, balki san'at orqali dunyoni his etish, go'zallikni anglash va o'z fikrini obrazlar orqali ifodalash madaniyatini singdiradi. Bunday o'qituvchi kasbiy kompetensiyasi yuqori bo'lishi uchun u badiiy asar tahlilini, rang va shaklning psixologik ta'sirini, kompozitsiya qonuniyatlarini chuqur bilishi, shuningdek, o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni qo'llay olishi lozim.

Rassom yoki pedagogning kasbiy kompetensiyasi – bu uning ijodiy muhitda o'zini anglay olish, zamonaviy texnologiyalar va badiiy uslublarni ongli ravishda tanlab qo'llay olish, milliy san'at an'analarni zamon ruhiga mos ravishda talqin eta bilish qobiliyatidir. Hozirgi davrda raqamli san'at, dizayn, grafika kabi yo'nalishlar rivojlanib borayotgan sharoitda kompetent mutaxassisdan faqat an'anaviy mahorat emas, balki yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni ijodiy ifoda vositasi sifatida ishlata olish talab etiladi.

Kasbiy kompetensiyaning mohiyati mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish qobiliyatida, yangiliklarni qabul qilishga tayyorligida hamda o'z sohasida innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'limda kasbiy kompetensiya shunchaki ma'lumot egallash bilan emas, balki o'quvchi yoki talabani amaliy faoliyatga tayyorlash, uni real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllantirish bilan belgilanadi. Shu bois, oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor o'rinni egallab, ta'lim natijalarini bilim, ko'nikma va malaka emas, balki amaliy tayyorgarlik darajasi orqali baholash mezoniga aylangan. Bu yondashuv mutaxassisni kasbiy jihatdan mustaqil, mas'uliyatli, yangilikka ochiq va ijodkor sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda kasbiy kompetensiya quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga ajratiladi:

1. Bilim (kognitiv komponent) – shaxsning o'z kasbiga oid nazariy bilimlar tizimini bilishi;
2. Amaliy faoliyat (operatsional komponent) – kasbiy faoliyatni bajarish ko'nikma va malakalari;
3. Motivatsion komponent – kasbga qiziqish, ijtimoiy ahamiyatni anglash, o'z kasbiy o'sishiga intilish;
4. Qadriyatli-axloqiy komponent – kasbiy etika, mas'uliyat, ijtimoiy burch hissi;
5. Kommunikativ komponent – hamkasblar bilan samarali muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish qobiliyati;
6. Refleksiv komponent – o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq olish va o'zini rivojlantirish layoqati.

Kasbiy kompetensiyaning asosida insonning o'z kasbiga mehr, ichki motivatsiya va jamiyatga foydali bo'lish istagi yotadi. Shaxs o'z kasbini faqat moddiy vosita emas, balki o'zini namoyon etish va ijtimoiy qadriyatlarni yaratish vositasi deb bilgan taqdirdagina u haqiqiy kompetent mutaxassis darajasiga ko'tariladi.

Shunday qilib, kasbiy kompetensiya – bu shaxsning kasbiy faoliyatdagi samaradorligini belgilovchi, uning bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va axloqiy sifatlarini bir butun holda namoyon etuvchi murakkab tizim bo'lib, zamonaviy ta'limning poydevori sanaladi. Shuningdek, tasviriy san'atda kasbiy kompetensiyaning rivojlanishiga estetik muhit va ijodiy erkinlik katta ta'sir ko'rsatadi. Rassom o'zini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lgan muhitda o'zining ichki dunyosini badiiy obrazlarda ochib berishi osonlashadi. Shu sababli, san'at ta'limi muassasalarida ijodiy muhit yaratish, talabalarda mustaqil san'at tili va uslub shakllantirish kasbiy kompetensiyaning zaruriy sharti hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiyaning mohiyatini belgilovchi yana bir muhim jihat – emotsional-intellektual tafakkurdir. San'atkorning hissiy holati, ruhiy sezgirligi va emotsional barqarorligi uning kasbiy faoliyatining sifatini belgilaydi. O'qituvchi esa o'z o'quvchilarining emotsional holatini to'g'ri tahlil qilib, ularni ijodiy ruhda qo'llab-quvvatlasa, bu ham kasbiy kompetensiyaning yuqori ko'rsatkichidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Kasbiy kompetensiya” atamasi lotincha “competere” – “munosib bo'lish”, “qobiliyatli bo'lish” so'zlaridan olingan bo'lib, shaxsning o'z kasbini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlar majmuasini anglatadi. Kasbiy kompetensiya shaxsning intellektual, irodaviy va hissiy imkoniyatlarini faollashtiruvchi mexanizm sifatida ham e'tirof etiladi. Chunki kompetent mutaxassis o'z kasbiy faoliyatini nafaqat o'rgangan me'yorlar doirasida, balki yangi, nostandart vaziyatlarda ham samarali tashkil eta oladi.

Bu jihatdan kasbiy kompetensiya – insonning bilimni amaliyot bilan uyg'unlashtirish darajasi, o'z kasbiy faoliyatini refleksiv baholash, uni tahlil etish va doimiy takomillashtirishga qodirlikni ifodalaydi. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillik, ijodkorlik va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har bir tasviriy san'at fani o'qituvchisining vazifasi – ana shu texnologiyani topish va uni amalda qo'llashdan iborat. Buning uchun o'qituvchi o'z bilimi ustida muntazam ishlashi, kompyuter texnologiyalaridan foydalana olishi, ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilishi, ularning imkoniyatlari hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilayotgan dolzarb maqolalar bilan tanishib borishi zarur. Shuningdek, u yangi g'oyalar ustida ishlashi, o'z fikrini aniq va mantiqan bayon qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchi chet tilini bilishi, shu tildagi axborotlarni bema'lol o'qiy olishi va xorijiy hamkasblari bilan internet orqali muloqot qila olishi muhimdir.

Tasviriy san'at sohasida kasbiy kompetensiya nafaqat mutaxassisning badiiy mahorati bilan belgilanadi, balki uning san'at orqali ijtimoiy va madaniy muhitga ta'sir o'tkaza olish salohiyati bilan ham o'lchanadi. Rassom yoki pedagog o'z ijodida jamiyat muammolariga badiiy yechim topa olsa, u shunchaki kasbiy mahoratli ijodkor emas, balki madaniy tafakkur egasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda kasbiy kompetensiya – bu san'atni anglash va uni insonparvarlik, estetik tarbiya vositasiga aylantira olish qobiliyatidir.

Kasbiy kompetensiyaning mohiyatida integrativlik va dinamiklik xususiyatlari muhim o'rin tutadi. Tasviriy san'at sohasidagi mutaxassisning kompetensiyasi hech qachon bir maromda qolmaydi – u doimo yangilanish, tajriba almashish va yangi uslublarni o'zlashtirish orqali rivojlanadi. Badiiy tafakkur jarayoni inson ongining eng nozik qatlamlariga ta'sir qilgani sababli, kompetensiyaning o'zi ham psixologik, ijtimoiy va estetik omillarning sintezida shakllanadi.

Tasviriy san'atdagi kompetensiya zamonaviy texnologiyalar ta'sirida ham o'zgarib bormoqda. Bugun raqamli san'at, grafik dizayn, 3D-modellash, virtual muhitda ijod qilish kabi yo'nalishlar san'atning yangi turlarini yuzaga keltirdi. Shu sababli san'at ta'limida kasbiy kompetensiyani shakllantirishda axborot madaniyati va raqamli savodxonlik ham muhim tarkibiy qism sifatida qaralmoqda.

Rassom-pedagog bu texnologiyalarni o'quv jarayoniga to'g'ri kiritishni bilishi, ularni ijodiy ifoda vositasi sifatida samarali ishlata olishi zarur. Kasbiy kompetensiya shaxsning ijtimoiy-madaniy tajribasini aks ettiradi, chunki har bir kasb o'ziga xos qadriyatlar tizimi, me'yor va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Demak, kompetensiya nafaqat texnologik yoki bilimiy tayyorgarlik, balki madaniy va axloqiy ong darajasini ham o'z ichiga oladi.

U mutaxassisning kasbiy o'zini anglash jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs o'zini tanlangan sohada subyekt sifatida idrok etadi, o'z faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglaydi va uni takomillashtirishga intiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi doimiy o'suvchi jarayon bo'lib, u faqat oliy ta'lim davrida emas, balki butun kasbiy faoliyati davomida takomillashib boradi. Shu bois, zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda "lifelong learning" – "umr bo'yi o'qish" tamoyili kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi.

Tahliliy yondashuv shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetensiya insonning kasbiy muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan kompleks tizim bo'lib, unda bilimlar (kognitiv baza), ko'nikmalar (amaliy bazis), qadriyatlar (aksiologik tizim) va motivatsiya (ichki psixologik omil) o'zaro uzviy aloqada rivojlanadi. Shu sababli kasbiy kompetensiyani faqat bir yo'nalishda o'lchash yoki baholash mumkin emas, balki uni shaxsning integral sifat darajasi sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Aytish mumkinki, tasviriy san'atdagi kasbiy kompetensiya shunchaki texnik mahorat yoki estetik did emas, balki ijodiy tafakkur, hissiy sezgirlik, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy ongning uyg'unlashgan holatidir. San'atkor yoki pedagog o'z ijodi orqali jamiyatga estetik, ma'naviy va madaniy ta'sir ko'rsata olsa, u haqiqiy kompetent mutaxassis sanaladi.

Shu sababli tasviriy san'at ta'limida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish nafaqat individual ijodiy o'sishni, balki milliy badiiy maktabning uzluksiz rivojlanishini ham ta'minlaydi. Zamonaviy ta'lim tizimi kasbiy kompetensiyani faqat natija sifatida emas, balki jarayon sifatida ham ko'radi.

Har bir talaba yoki magistrant o'z ijodiy faoliyati orqali kompetensiyalar tizimini rivojlantiradi: u o'rganadi, sinov qiladi, tahlil etadi va o'z kasbiy identifikatsiyasini shakllantiradi. Shu bois, kasbiy kompetensiya shaxsning doimiy o'sish, o'rganish va yangilanishga yo'naltirilgan hayotiy strategiyasini ifodalaydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kasbiy kompetensiya – bu shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligini belgilovchi, bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy xususiyatlar uyg'unligiga asoslangan, amaliy samaradorlikka yo'naltirilgan murakkab tizimli kategoriya hisoblanadi.

U nafaqat kasbiy mahoratni, balki shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va kasb etikasiga munosabatini ham ifodalaydi. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh mutaxassis – bu kasbiy kompetensiyasi yuksak bo'lgan, o'z faoliyatini ijodiy, refleksiv va mas'uliyatli yondashuv asosida tashkil eta oladigan shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raxmatullayeva Z. Kasbiy kompetensiya tushunchasining pedagogik tahlili. – "Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar" ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Toshkent, 2022.
2. Xoliqova N. Oliy ta'limda kasbiy kompetensiyani shakllantirish omillari. – "Ilm sarchashmalari" jurnali, №4, 2021.
3. Shukurova D. Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetensiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2020.
5. Akhmedov, M. U., & Kholmatova, F. (2021). Formation of creative processes in students through teaching composition in fine arts.
6. Bakhrudinovich, A. M. U. (2022). The importance of folk applied art in the formation of youth creative activity. Current Research Journal of Pedagogics, 3(02), 142-156.
7. Ahmedov, M. U., & Xolmatova, F. (2021). Teaching students to draw elements of patterns in wood carving circles.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.